

INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY-IJODIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Arslonova Gulsora Kurbonovna,

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedera katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada ta'limda individual yondashuvning ahamiyati va uning talabalar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Maqolada ta'lim jarayonida har bir talabani shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyatlari va o'rganish usullariga moslashtirilgan individual yondashuvning qanday qilib kasbiy tayyorgarlikni yaxshilashga yordam berishi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Individual yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, ta'lim tizimi, shaxsiylashtirilgan ta'lim, pedagogik metodlar, talabalar rivoji, ta'limda innovatsiyalar, o'quv metodlari.

Аннотация. В данной научной статье рассматривается индивидуальный подход к образованию. Анализ ее значения и роли в развитии профессиональной подготовки студентов будет сделано. В статье рассмотрены личные потребности каждого студента в образовательном процессе. Индивидуальный подход, адаптированный к способностям и методам обучения как это может помочь улучшить профессиональную подготовку.

Ключевые слова: Индивидуальный подход, профессиональная подготовка, система образования, персонализированное обучение, педагогические методы, развитие студентов, инновации в образовании, образовательные методы.

Abstract. This scientific article discusses an individual approach to education. Analysis of its significance and role in the development of professional training of students will be done. The article examines the personal needs of each student in the educational process. Individual approach adapted to abilities and learning methods how it can help improve training.

Key words: Individual approach, professional training, education system, personalized learning, pedagogical methods, student development, innovations in education, educational methods.

Kirish. Ta'lim tizimining samarali ishlashi uchun talabalar bilan shaxsiylashtirilgan yondashuvning ahamiyati ortib bormoqda. Shaxsiylashtirilgan ta'lim — bu bo'lajak tarbiyachilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va o'rganish va ta'lim uslublariga moslashtirilgan ta'lim jarayonini yaratishdir. Bu bo'lajak tarbiyachilarning bir-biridan farq qilishi, o'rganishning turli usullari va tezliklari bo'yicha o'zgarishlar, ta'lim jarayonini moslashtirish zaruratini taqdim etadi. Ta'lim jarayonida individual yondashuvni qo'llash, talabalar uchun o'zlari uchun eng samarali va qulay o'rganish usullarini topish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, talabalar kasbiy tayyorgarligini oshirishga yordam beradi va ularning ta'limdagi muvaffaqiyatlarini kuchaytiradi.[3]

Tadqiqot va taxlil natijalari. O'zbekiston ta'lim tizimida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish, talabalarni jamiyatda kerakli bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash maqsadida amalga oshirilmogda. Kasbiy tayyorgarlikning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun esa, ta'lim jarayonida individual yondashuvni qo'llash juda muhim ahamiyatga ega. Talabalarning kasbiy tayyorgarligi, ularning nafaqat texnik bilimlarini, balki umumiy shaxsiy qobiliyatlarini ham rivojlantirishni talab qiladi. Shaxsiylashtirilgan ta'lim orqali talabalar o'zlariga

mos tarzda ta'lim olishlari, o'z salohiyatlarini to'liq namoyon etishlari va kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga tayyor bo'lishlari mumkin.[1]

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish

talabalar uchun nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'zlashtirishni osonlashtiradi. Masalan, talabalar o'z kasbiga oid amaliy ishlarni o'rganayotganda, ularning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos tarzda metodik yondashuvlar qo'llanishi kerak. Har bir talaba o'z sur'atida va o'ziga qulay bo'lgan usulda o'rganishi, shuningdek, o'zining ixtisoslik sohasidagi ko'nikmalarini yaxshilashi mumkin. Ta'lim jarayonida bunday shaxsiylashtirilgan yondashuvni qo'llash, talabalar uchun o'zlarining kasbiy tayyorgarliklarini yanada samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.[4]

Individual shaklda ta'lim berish 20-asr boshlarida ta'limni individuallashtirish dolzarb muammo hisoblangan, ta'lim oluvchilarni psixik rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Jamiyat rivojlanishi natijasida yakka o'qitish aristokrat, boy va ayrim ijtimoiy qatlam oilalarida bola tarbiyasida amalga oshirilgan. Buning natijasida turli darajadagi tabaqalashtirilgan ta'lim shakllari o'qitish amaliyotida sinab ko'rildi. Bulardan eng keng tarqalgani o'quvchilarga ularning iqtidorlarini hisobga olgan holda ta'lim berish shaklidir. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarning qobiliyatlariga qarab ularga o'quv topshiriqlari berish va mehnatga tayyorlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Individuallashtirish dunyo mamlakatlari olimlari tomonidan turlicha talqin qilingan. Ushbu tushunchani aniqlashtirishda ikki xil qarashlar uyg'unlashib ketadi, ya'ni individuallashtirish va differentsiallashtirish. Individual ta'lim-o'qituvchining talabaga yakka tartibda pedagogik ta'sirini amalga oshiruvchi o'quv mashg'ulotlari shakllaridan biri, o'qituvchining talaba bilan guruh jamoasidan tashqarida olib boriladigan alohida faoliyati. Individual yondashish asosida o'qitish yo'llari, usullari, sur'ati tanlanadi va turli o'quv-uslubiy psixologik-pedagogik hamda tashkiliy-boshqaruv tadbirlari orqali ta'minlanadi. Individuallashtirish va tabaqalashtirish tushunchalari bugungi kunda keng ko'lamda tadqiq etilmoqda. Bunday yondashuv O'zbekiston ta'lim tizimida asrlar davomida mavjud bo'lgan. O'tmishda maktabxonalar ayniqsa madrasalarda ta'lim oluvchilarga alohida yondashilgan holda, ularning qiziqishlari va intilishlarini hisobga olib ta'lim-tarbiya berilgan. Har bir ta'lim oluvchining muayyan mavzuni bilish imkoniyatlari va o'zlashtirish darajalari aniqlangandan keyingina unga navbatdagi topshiriq berilgan. Uzoq yillar mobaynida jamiyatda o'quvchilarning intellektual taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratilgan.

Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda bo'lajak tarbiyachilarning o'rni beqiyosdir. Har sohada kompetentli tarbiyachi bo'lish uchun maktabgacha pedagogika nazariyasini egallashni o'ziga yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g'oyalar bayon etiladi. Tarbiyalanuvchilarning yosh individual

xususiyatlarini e'tiborga olish takidlanadi. Maktabgacha ta'lim amaliyoti va pedagogik jarayon esa juda xilma xil va turli tumandir. Unda pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa tarbiyachidan chuqur bilimdonlikni puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak ergonomik kompetentlikni va ijodkorlikni talab etadi.

Shu bilan birga zamonaviy bo'lajak tarbiyachi buyuk ma'naviy fazilatlarga ega, insoniy sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritishi talab etiladi. Xozirgi davrning bu talabi tarbiyachilarni yuksak pedagogik mahorat va ergonomika ko'nikmalariga ega, ergonomik kompetensiya sirlaridan voqif bo'lgan umummadaniy fazilatlarga boy shaxs sifatida ta'lim-tarbiya jarayonining ijodkori bo'lishi lozimligini isbotlamoqda.

Bo'lajak tarbiyachilar pedagogika-psixologiya fanlarini chuqur o'rganishi, maxsus fanlar, ularni o'qitilish metodikasini chuqur bilishi, pedagogik amaliyotda faol ishtirok etish va uni samarali o'tkazishi zarur. O'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish. O'z ustida mustaqil ishlashi kerak.

Xulosa. Bola shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun bo'lajak tarbiyachi-pedagog o'zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur. Tarbiyalanuvchilarni mehnat, muloqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarbiyaning asosiy vositasi xisoblanadi. Har bir mohir tarbiyachi o'zining individual pedagogik tizimiga ega bo'lishi kerak. Ayrim tarbiyachilar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo, ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida tarbiyachi turli o'quv faoliyatini tashkil etadi. Shu bilan birga bolalarni bilim olishga qiziqtirishda tarbiyachi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir etadi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, bolalar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda bularning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali tarbiyachi uning xatti-harakati bolalarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik mahoratni tarbiyachi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni yuqori darajada psixologik pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini unutmashlik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G.K.Arslonova. Oliy ta'lim jarayonida individual yondashuvning pedagogik-psixologik xususiyatlari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar ISSN 2181-1709 (P) ISSN 2181-1717 (E) 2024/№ 1.
2. G.K.Arslonova. Oliy talim jarayonida individual ta'limni tashkil etishning pedagogik jihatlari. Pedagogik mahurat Ilmiy-nazariy va metodik jurnal ISSN 2181-6883 2-son (2024-yil, fevral) Buxoro-2024y.
3. G.K.Arslonova. Individual ta'lim muhitida talabalarning kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali omillari. Pedagogika Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 6/2024.

4. G.K.Arslonova. Individual ta'lim muhitida talabalarning kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari. МУҒАЛЖИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ Илимий методикалык журнал № 5/2 2024.
5. G.K.Arslonova. Bo'lajak talabalarning individual yondashuv asosida kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish. МАКТАБГАЧА ВА МАКТАБ ТА'ЛИМИ VAZIRLIGI. O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti МАКТАБГАЧА ВА МАКТАБ ТА'ЛИМИ Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal №1(2) 2026 Elektron nashr. 312 sahifa, 20yanvar ISSN: 3060-4613.
6. G.K.Arslonova. Formation of professional and crative skills of students in an individual learning environment. EVROPEAN INTERNATIONAL JOVRNAL OF PEDAGOGICS ISSN: 2751-000X VOLUME04 ISSU03 DOI:<https://doi.org/10.55640/eijp-04-03-11> Pages:56-59
7. G.K.Arslonova. The practical status of developing students professional- creative in an individual educational envipon ment. Educator Insights: A Journal of Teaching Theory and Practice Volume 01, Issue 02, February, 2025 brightmindpublishing.com ISSN (E): 3061-6964 Licensed under CC BY 4.0 a Creative Commons Attribution 4.0 International License.
8. Kurbonovna, A. G. (2025). TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING STUDENTS'PROFESSIONAL AND CREATIVE SKILLS IN THE ENVIRONMENT OF INDIVIDUAL EDUCATION. *SHOKH LIBRARY*.
9. Arslonova, G. K., & Xafizova, M. M. (2024). BOLA SHAXSINING RIVOJLANISHIDA OILAVIY MUHITNING TARBIYAGA TA'' SIRI. *Academic research in educational sciences*, (1), 159-161.
10. Arslonova, G. K., & Xafizova, M. M. (2024). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLA O'YIN FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI. *Academic research in educational sciences*, (1), 156-158.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934